

**ONA TILI TA'LIMIDA LUG‘AT BOYLIGINI OSHIRISH BO‘YICHA
ILG‘OR TEKNOLOGIYALAR**

10.00.00- *Filologiya fanlari*
Xalilova Maftuna Azamat qizi
Shahrisabz davlat pedagogika
institute magistranti
xalilovamaftuna53@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqola ona tili ta’limida lug‘at boyligini oshirishga oid ilg‘or texnologiyalarni tahlil qiladi. Maqolada, til o‘rganish jarayonida zamonaviy texnologiyalarning, xususan, raqamli platformalar, mobil ilovalar va sun‘iy intellekt asosida ishlovchi tizimlarning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Lug‘at boyligini oshirishda interaktiv va multimedia vositalarining roli, shuningdek, ta’limda o‘quvchilarga yangicha yondashuvlarni tatbiq etishning afzalliklari ta’kidlanadi. Maqolada ilg‘or texnologiyalarning ona tili o‘rganishda qanday samarali ishlatalishi, o‘qituvchi va o‘quvchilarga qanday imkoniyatlar yaratishi haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar ona tili ta’limi, lug‘at boyligi, ilg‘or texnologiyalar, raqamli platformalar, mobil ilovalar, sun‘iy intellekt, interaktiv vositalar, multimedia, o‘qituvchi, o‘quvchi, ta’lim innovatsiyalari

**"ADVANCED TECHNOLOGIES FOR EXPANDING VOCABULARY IN
MOTHER TONGUE EDUCATION"**

UDC: 10.00.00 – *Philological Sciences*
Khalilova Maftuna Azamat qizi
Master’s student of Shahrisabz State Pedagogical Institute
xalilovamaftuna53@gmail.com

Abstract This article analyzes advanced technologies for expanding vocabulary in mother tongue education. It discusses the importance of modern technologies, especially digital platforms, mobile applications, and AI-driven systems, in the language learning process. The article highlights the role of interactive and multimedia tools in enriching vocabulary and emphasizes the benefits of implementing innovative approaches in teaching. The paper provides detailed information on how advanced technologies can be effectively used in mother tongue education and the opportunities they offer to both teachers and students.

Keywords mother tongue education, vocabulary enrichment, advanced technologies, digital platforms, mobile applications, artificial intelligence, interactive tools, multimedia, teacher, student, educational innovations

Ona tili ta'limalda lug‘at boyligini oshirish, tilshunoslik va pedagogika sohalarida muhim yo‘nalish hisoblanadi. Lug‘at boyligini oshirish – bu tilni yaxshi bilish, so‘zlar va iboralarning to‘liq va aniq tushunchalarini yaratish jarayonidir. Lug‘at boyligini oshirish nafaqat tilning texnik tomonini yaxshilaydi, balki fikr yuritish va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Mustaqillik davri o‘quv lug‘atlarining asosiy yutuqlari sifatida o‘quv lug‘atlari qamrov doirasi kengaygani, ya’ni, ta’limning barcha bo‘g‘inlariga mo‘ljallangan lug‘atlarning elektron va qog‘oz shaklida yaratilishi, bir nechta seriyali o‘quv lug‘atlarning paydo bo‘lishi bilan aloqador. O‘zbek tilida o‘quv leksikografiyasi nazariy asoslari ishlab chiqilmagani, lug‘atlarni nashrga tayyorlash va chop etish bilan bog‘liq moliyaviy ko‘mak tizimi yaratilmaganligi va boshqa omillarga ko‘ra joriy davrdagi o‘quv lug‘atchiligi ham kamchiliklardan xoli emas. Yaratilgan lug‘atlarning ko‘pchiligi kompilyatsiya xarakterga ega. So‘zlikni tanlash, izoh tipidagi lug‘atlarda so‘zning ma’nosini sharhlashda milliy ruh sezilmaydi.

Ta’kidlash joizki, elektron lug‘at allaqachon yaratilgan qog‘oz lug‘atlarning shunchaki elektron (skanerlangan, raqamlashtirilgan) versiyasi emas, balki u butunlay mustaqil mahsulot bo‘lib, o‘ziga xos strukturaga ega. Elektron lug‘atlarning mavjud shakli nafaqat an'anaviy lug‘atlarning mantiqiy davomidir, balki mazmun komponentini to‘ldiruvchi va yangi imkoniyatlar yaratadigan bir mahsulotdir. Kompyuter leksikografiyasi esa amaliy leksikografiyaning o‘ziga xos yo‘nalishi hisoblanadi, chunki u faqatgina shakliy tuzilishi bilan emas, balki lug‘atning mazmunini ifodalashda ham o‘ziga xos yondashuvlarni taqdim etadi.

Keyingi yillarda elektron lug‘atlar o‘zining tadqiqot obyektiga aylanishi ham ajablanarli emas. Bu turdagи lug‘atlar nafaqat tilshunoslar, balki ko‘plab soha mutaxassislari tomonidan ham izlanishlar va tadqiqotlar olib boriladigan bir mavzuga aylandi. O.S. Rubleva ta’biri bilan aytganda, oxirgi yillarda elektron lug‘atlarning yaratilishi, internetning rivojlanishi va ma’lumotlarni elektron shaklda saqlash jarayonining ommalashuvi sababli, ular foydalanuvchilar uchun yanada ko‘p imkoniyatlar taqdim etmoqda. Biroq, hali ham elektron lug‘atlarning foydalanuvchilar tomonidan turli maqsadlarda foydalanish imkoniyatlarining to‘liq lingvistik tavsifi mavjud emas.

Bu vaziyatda, elektron lug‘atlarning lingvistik tavsifini kengaytirish, ularning imkoniyatlarini to‘liqroq ifodalash va foydalanuvchilar uchun yanada qulayroq qilish muhimdir. Elektron lug‘atlar nafaqat an'anaviy lug‘atlarning “raqamli versiyasi”, balki

yangi interaktiv va multimedia imkoniyatlari bilan boyitilgan yangi avlod mahsulotlari bo‘lib, tilni o‘rganishda va so‘z boyligini oshirishda yanada samarali vosita bo‘la oladi.

Leksik sathning birligi hisoblangan terminlar va ularni tanlash, qo‘llash bilan bog‘liq masalalar bilan alohida shug‘ullanuvchi terminografiya sohasida amalgam oshirilayotgan tadqiqotlar, lug‘atlar, nafaqat jahon, balki o‘zbek leksikografiyasida ham muhim tarmoq sifatida ajralib chiqishiga asos bo‘ldi. Lug‘at va lug‘atshunoslik sohasida rus tilshunosligida turli tipdagi lug‘atlarni ishlab chiqish, tuzish va qo‘llash masalalari ancha oldin ko‘tarilgan. Ammo leksikografiya va terminografiya atamalari qo‘llanishi faol bo‘lsa-da, ilmiy manbalar va tadqiqotlar bu ikki termin haqidagi xulosalarning noaniqligini, bu yo‘nalishlarning chegarasi qayerda ekanligi mavhumligini ko‘rsatdi. Ushbu tadqiqot ishining asosiy vazifalaridan biri – aynan leksikografiya va terminografiya atamalarining ilmiy tushunchalarini aniqlashtirish.

Dastlab, leksikografiya va terminologiyaning chegarasini aniqlash xususida A.Gerd fikricha, turli tipdagi lug‘atlarni ishlab chiqish va yaratish nazariyasi va amaliyotini leksikografiya” deb ta’riflaydi.¹ Darhaqiqat, “leksikografiya – turli tipdagi lug‘atlarni ishlab chiqish va yaratish nazariyasi va amaliyotidir. U leksikografiya terminini imlo, orfoepiya, nutq madaniyati asoslari va til o‘qitish metodikasi bilan birga, xusan, tilshunoslikning asosiy amaliy jihatlari aks etgan o‘rinlarda qaydlanishini e’tirof etadi. Aniqroq aytganda, leksikografiya tilshunoslikning bir bo‘limidir. Ilmiy-texnik leksikografiyaning obyekti maxsus (terminologik) lug‘atlar yaratish nazariyasi va amaliyotidir. Maxsus lug‘atlar zavod, fabrika, texnika, xo‘jalik birlashmalarining ishlab chiqarish hujjatlarida, kompyuter dasturlarida, shuningdek, vazirlilik, idoralar, oliy o‘quv yurtlarining ish hujjatlarida keltirilgan alohida fanlar va bilim sohalarining terminologiyasi va nomenklaturasini sharhlaydi va belgilaydi.

Bugungi kunda ta’lim mazmunini takomillashtirish va ta’limiy hamda til korpuslarini yaratish jarayonida lingvistik lug‘atlar yaratish masalasiga yangicha yondashish zarurati mavjud. Zamonaviy texnologiyalar va ilmiy yondashuvlar, ayniqsa elektron lug‘atlar, interaktiv materiallar va multimedia vositalari yordamida ta’lim tizimiga katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Traditsion lug‘atlar ko‘plab foydalanuvchilar uchun kerakli bilimlarni taqdim etsa-da, bugungi talablar va texnologik yutuqlar bu sohada yangicha yondashuvni taqozo etmoqda. Lug‘atlarni yaratish faqatgina so‘zlarning ma’nolarini kiritish bilan cheklanmay, balki ularni tilshunoslik, pedagogika va axborot texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish, o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini interaktiv va samarali qilishni o‘z ichiga oladi. Bu yangi yondashuvlar, o‘z navbatida, so‘z boyligini oshirish, tilni chuqurroq o‘rganish va ta’lim jarayonini sifatli tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi.

¹ Герд А.С. Терминологическое значение и типы терминологических значений // Проблематика определений терминов в словарях разных типов. – Ленинград: Наука, 1976. – С. 101-107.

Shuningdek, til korpuslari yaratish va ta'limiylar korpuslarni samarali joriy etish, o'quvchilarni zamonaviy bilimlarga moslashtirishni ta'minlashi mumkin. Bu esa, lingvistik lug'atlar va korpuslar yordamida nafaqat tilni o'rganish, balki madaniyat va qadriyatlarni ham kengaytirishni taqozo etadi.

Xususan, lingvistik lug'atlarning ahamiyatlilik darajasiga ko'ra turkumlarga ajratgan holda elektron lug'atlar yaratish maqsadga muvofiq. Masalan, nutqda ot va fe'l so'z turkumlarining qo'llanilishi boshqa turkumlarga qaraganda faolroq. Ta'lim jarayoni ham bosma ma'lumotlardan ko'ra elektron o'quv materiallariga katta ehtiyoj sezmoqda. Bunday vaziyatda, avvalo, ma'lumot qidirish jarayonini ham tezlashtiradigan, vaqt ni tejash imkonini beradigan so'z turkumlari bo'yicha alohida lug'atlar yaratish lozim. Bundan tashqari, filologiya, tilshunoslik, jumladan, leksikologiya sohasida tadqiqot olib boruvchilar uchun turkumlarga ajratilgan elektron lug'atlar ish samaradorligini oshirish, umumiyligini ko'rinish haqida darhol tasavvurga ega bo'lish sharoitini yaratadi. Ayniqsa, ot so'z turkumiga doir "Atoqli otlar" lug'atining o'zi turli shakllarda ishlab chiqilishi mumkin:

1. "Atoqli otlar lug'ati".
2. "O'zlashma atoqli otlar lug'ati".
3. "Joy nomlari lug'ati".
4. "Faol sohaviy terminlar lug'ati".
5. "Tashkilot-muassasa nomlari lug'ati".

Bu lug'atlarning mavjud umumiy va an'anaviy lug'atlardan farqi shundaki, tasniflangan mazkur lug'atlar tarkibiga kiritilgan so'zlar, avvalo, qo'llanilishiga ko'ra eng faol so'zlardan tarkib topadi, har bir so'zning imlosi va transkriptsiya bo'yicha talaffuz shakli ham beriladi. Bundan tashqari, jamiyat ehtiyojiga ko'ra rasmiy faoliyatda ish yuritish uchun, asosan, ot va fe'l so'z turkumlariga ko'proq murojaat qilinadi. Hujjatlarda, turli uslublardagi matnlarda takrorlarning oldini olish maqsadida "Ma'nodosh otlar", "Ma'nodosh fe'llar" lug'atlari tayyorlanishi tildan foydalanishda, ish yuritishda qulaylik yaratadi.

O'zbek tilining o'z qatlamiga doir so'zlarni muloqot jarayonida keng qo'llashni ta'minlash uchun quyidagicha yondashish mumkin:

1. "O'zbekcha atoqli otlar lug'ati".
2. "O'zbekcha ismlar lug'ati".
3. "O'zbekcha fe'llar lug'ati".
4. "O'zbekcha o'rin-joy otlari lug'ati".

Bunday lug'atlar, albatta, elektron shaklda yaratiladi. Mazkur lug'at tarkibidagi har bir so'z imlo va talaffuz me'yorlarini o'rganishga ham xizmat qiladi.²

²Xamroyeva Sh. Mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari. fil. fan. bo'yicha falsafa doktori diss. avtoreferati – Qarshi, 2018.

Mazkur lug‘at turlari kompyuter lingvistikasi taraqqiyotiga ham, korpus lingivistikasiga ham birdek xizmat qila oladigan qulay elektron kontent vazifasini bajara oladi. Tilshunoslik atamalari ham shu jihatdan bir-biridan farq qilmaydi. O‘zbek tilshunosligi, jumladan, grammatisiga oid terminlar shakllanishida rus tilining ta’siri kata bo‘lgani ma’lum. Yuqorida aytilganidek, so‘nggi yillarda ayrim atamalarni milliylashtirishga erishildi. Biroq asosiy grammatik terminlogiya baribir yunon tiliga mansubligicha qolmoqda. O‘zbek tilshunosligida grammatik terminlar bo‘yicha sanoqli tadqiqotlar olib borilgan. Bu borada Azim Hojiyevning “Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati” hozirgi davrda barcha tadqiqotchilar tomonidan faol ishlataladi, biroq mazkur lug‘at elektron shaklda mavjud emas, bu esa muayyan darajada tadqiqotchilarga qiyinchilik tug‘dirmoqda. Shu ma’noda grammatik terminlarning elektron lug‘atini yaratish dolzarblik kasb etadi.

Shunday qilib, o‘zbek tili o‘zlashma grammatik terminlarining elektron lug‘atini yaratish uchun o‘zbek tili grammatisiga o‘zlashgan grammatik terminlar bazasini shakllantirish; grammatik terminlar bazasini qaysi usul yordamida o‘zlashtirilganligini aniqlash, u orqali yangi terminning tavsiya etiladigan oxirgi grammatik shaklini aniqlash; o‘zlashgan grammatik terminning shakl va ma’no xususiyatiga ko‘ra o‘rnini belgilash; o‘zlashgan grammatik terminning etimologiyasi, semantikasi va fonologiyasini hisobga olgan holda izoh yoki tarjimasini yaratish; o‘zlashma grammatik terminni razmetkalash, lemmatizatsiya, parsing, tagging bosqichlaridan o‘tkazish; o‘zlashma grammatik terminlarning muvofiq valentligini belgilash; o‘zlashma grammatik terminning ishonchli, ixcham va elektron lug‘atning qidiruv tizimiga mos shaklda elektron lug‘atda aks etishini ta’minlash; o‘zlashma grammatik terminlar ma’lumotlar bazasining ko‘zda tutilgan dasturiy ta’motini yaratish hamda uni muvofiq keluvchi korpusda aks ettirish kabi asosiy bosqichlarni amalga oshirish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Xamroyeva Sh. Mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari. fil. fan. bo‘yicha falsafa doktori diss. avtoreferati – Qarshi, 2018.
2. A’zamov, A. (2020). **Ona tili ta’limida zamонавиу texnologiyalar va ularning o‘quvchilarga ta’siri.** Tashkent: O‘qituvchi.
3. Qodirov, A. (2019). **Lug‘at boyligini oshirishda interaktiv vositalar.** Samarqand: SamDCHT.
4. Zayniddinov, S. (2021). **Mobil ilovalar orqali ona tili o‘rganish metodikasi.** Tashkent: Fan va texnologiya.
5. Mirzaeva, N. (2018). **Sun‘iy intellekt va ta’limdagi innovatsiyalar.** Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi.
6. Karimov, R. (2022). **Ona tili ta’limida multimedia vositalarining ahamiyati.** Bukhara: Bukhara State University Press.

7. Mustafoeva, S. (2020). **Ilg‘or texnologiyalar yordamida lug‘at boyligini oshirish usullari.** Tashkent: MediaPrint.
8. Xudoyberganova, D. (2021). **Ta’limda raqamlı texnologiyalarning roli va afzalliklari.** Fergana: Fergana State University.
9. Latifov, D. (2017). **Ona tili ta’limida multimedia vositalaridan foydalanishning samaradorligi.** Tashkent: TDTU.